

“G‘O‘ZANING *G.BARBADENSE* L TURIGA MANSUB ERTAPISHAR, HOSILDORLIGI VA TOLA CHIQIMI YUQORI NAVLARINI YARATISH UCHUN OTA-ONA JUFTLARINI TANLASH”.

Boyto‘rayeva Maftuna

Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutining “Seleksiya va urug‘chilik” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranti.

Email: boytorayevamaftuna7@gmail.com

Islamov Ilxom Turdiyevich

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining “Seleksiya va urug‘chilik” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranti.

Email: ilxom2401@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18977663>

Annotatsiya: Ushbu ishda *Gossypium barbadense* L. turiga mansub namunalar orasida ertapisharlik, yuqori hosildorlik va tola chiqimi kabi xo‘jalik jihatidan muhim belgilar bo‘yicha istiqbolli ota-ona shakllarni tanlash masalalari o‘rganildi. Tadqiqotlar dala sharoitida olib borilib, o‘sish davri, ko‘sak soni, tola chiqimi va hosildorlik kabi asosiy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Natijalar asosida seleksiya uchun genetik jihatdan istiqbolli ota-ona juftlari aniqlanib, yangi navlar yaratish uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: *Gossypium barbadense* L., ertapisharlik, hosildorlik, tola chiqimi, seleksiya, duragaylash, ota-ona jufti.

Аннотация: В данной работе изучен процесс отбора перспективных родительских форм у образцов вида *Gossypium barbadense* L. по таким хозяйственно ценным признакам, как раннеспелость, высокая урожайность и выход волокна. Исследования проводились в полевых условиях, где были проанализированы основные показатели-продолжительность вегетационного периода, количество коробочек, выход волокна и урожайность. На основе полученных данных определены генетически перспективные родительские пары, рекомендованные для использования в селекционной работе по созданию новых, высокоурожайных и раннеспелых сортов.

Ключевые слова: *Gossypium barbadense* L., скороспелость, урожайность, выход волокна, селекция, гибридизация, родительская пара.

Abstract: This study investigates the selection of promising parental lines of *Gossypium barbadense* L. based on economically valuable traits such as earliness, high yield, and fiber output. The experiments were conducted under field conditions, where main agronomic traits-vegetation period length, number of bolls, fiber percentage, and yield-were analyzed. Based on the obtained results, genetically promising parental combinations were identified and recommended for breeding programs aimed at developing early-maturing and high-yielding cotton varieties.

Keywords: *Gossypium barbadense* L., early-maturing, yielding, fiber output, selection, hybrid, parental pairs.

Kirish: Ingichka tolali paxta yuqori sifatli tola beruvchi qimmatli texnik ekin hisoblanadi. U yengil sanoat uchun muhim xomashyo bo‘lib, mamlakatimiz iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega. Shu sababli bunday paxta navlarini o‘rganish va istiqbolli namunalarni aniqlash dolzarb vazifalardan biridir.

Maqsad: *G. barbadense* L. turiga mansub namunalar orasidan erta pishar, hosildorligi va tola chiqimi yuqori ota-ona shakllarni tanlash.

Uslubiyat: Tadqiqot ishlari 2025-yil Surxondaryo viloyati Termiz tumanida joylashgan Ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot institutining tajriba dalalarida olib borildi. Turli genetik kelib chiqishga ega namunalar morfologik, fenologik va xo‘jalik belgilariga ko‘ra o‘rganildi.

Natijalar va muhokama: Tadqiqotlarda boshlang‘ich ashyo sifatida turli mamlakatlarda yaratilgan ingichka tolali (*G. barbadense* L.) turiga mansub 50 ta kolleksion navlardan foydalanildi. Andoza nav sifatida Surxon-14 navi olindi.

Ekinning hosildorligi har bir o‘simlikning mahsuldorligi va tup soni (ko‘chat qalinligi) bilan ifodalanadi Demak, o‘simlikning mahsuldorligi nav hosildorligini belgilovchi ikki asosiy ko‘rsatkichning biridir. Seleksiya jarayonining dastlabki bosqichida tanlab olingan o‘simliklarning

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

avlodi faqat maqsuldorligi bo‘yicha baholandi, chunki ular oz va juda kichik maydonlarga ekildi. Standart nav mahsuldorligi Surxon-14 31,9 gr tashkil qildi. Quyidagi nav va namunalari mahsuldorligi bo‘yicha andoza navidan nisbatan yuqori natijalarni VIR-109TB 110,7 gr, Rekri-55 72,0 gr, Ash-239-B 66,4 gr, C-6030 61,0 gr va Tadla-16 59,1 ko‘rsatdi.

Standart navdan juda past natijani quyidagi kolleksiya nav va namunalari 8704-U 1,4 gr, Sujata 9,3, VIR-41 TB 13,2 gr hamda Gure4fv135+Wineet 15,3 gr ekanligi aniqlandi (1.1 jadval)

1.1.jadval.

Kolleksiya namunalarida hosildorlik ko‘rsatkichlari aniqlash.

T/r	Nav va namunalari nomi	Sinov namunasining paxta vazni, gr	Umumiy paxta vazni, gr	Umumiy o‘simliklar soni, dona	Mahsuldorlik, gr
1.	Surxon-8	46,4	300,4	13	23,1
2.	Termiz-31	-	-	-	-
3.	Surxon-10	-	-	-	-
4.	P-50	79,0	693,0	17	40,8
5.	ASH167V9647	55,0	520,0	9	57,8
6.	ASH-11	-	-	-	-
7.	ASH-239B	79,0	730,0	11	66,4
8.	Ormanskiy	54,5	282,5	13	21,7
9.	Pima-1277	57	516,0	13	39,7
10.	ASH-166-B	45	375,0	13	28,8
11.	Surxon-14	53,5	351,0	11	31,9
12.	ASH-143-V	60,0	261,0	14	18,6
13.	ASH-238-V	59,5	296,5	15	19,8
14.	8173-u	44,0	343,0	9	38,1
15.	ASH-115-B	63,0	718,0	14	51,3
16.	9647-u	73,0	483,0	16	30,2
17.	ASH-161-u	59,0	421,0	11	38,3
18.	T-7	58,0	268,0	13	20,6
19.	8704-U	14,0	14,0	10	1,4
20.	Talda-18	60,0	539,0	12	44,9
21.	Talda-16	54,0	650,0	11	59,1
22.	FB-20	52,0	370,0	12	30,8
23.	Tadla-29	65,0	344,0	11	31,3
24.	Rekri-59	66,0	648,0	9	72,0
25.	Karnak-55	66,0	461,0	11	41,9
26.	L-299738	64,0	239,0	8	29,9
27.	8813-u	80,0	427,0	14	30,5
28.	L-6009	33,0	129,0	5	25,8
29.	C-6030	71,0	244,0	4	61,0
30.	8763-U	58,0	365,0	9	40,6
31.	8763-U	62,0	316,0	14	22,6
32.	L2u3	47,0	360,0	10	36,0
33.	5904-B	57,0	297,0	6	49,5
34.	VIR-119TB	66,0	454,0	10	45,4
35.	VIR-130TB	72,0	365,0	10	36,5
36.	VIR-36TB	59,0	596,0	11	54,2
37.	VIR-41TB	36,0	79,0	6	13,2
38.	VIR-109TB	78,0	332,0	3	110,7
39.	Pima-1277	55,0	248,0	7	35,4
40.	Sujata	46,0	148,0	16	9,3
41.	Pima-1277	32,0	294,0	16	18,4
42.	4623 iz zagori 0669	73,0	186,0	5	37,2
43.	9075 iz Maaraad	29,0	247,0	5	49,4
44.	Sakellarids	63,0	344,0	11	31,3

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

T/r	Nav va namunalari nomi	Sinov namunasining paxta vazni, gr	Umumiy paxta vazni, gr	Umumiy o‘simliklar soni, dona	Mahsuldorlik, gr
45.	4729-u	56,0	254,0	7	36,3
46.	Gure4fv135+ Wineet	21,0	168,0	11	15,3
47.	Maaraad x Sakkoz	64,0	227,0	8	28,4
48.	10.005	-	-	-	-
49.	275 iz time	44,0	170,0	7	24,3
50.	Giza-45	50,0	181,0	8	22,6
51.	Giza-3	43,0	117,0	5	23,4

Xulosa Standart nav mahsuldorligi Surxon-14 34,3 gr tashkil qildi. Quyidagi nav va namunalari mahsuldorligi bo‘yicha andoza navidan nisbatan yuqori natijalarni VIR-109TB 110,7 gr, Rekri-55 72,0 gr, Ash-239-B 66,4 gr, C-6030 61,0 gr va Tadla-16 59,0 ko‘rsatadi. Standart navdan juda past natijani quyidagi kolleksiya nav va namunalari 8704-U 1,4 gr, Sujata 9,25, VIR-41 TB 13,2 gr hamda Gure4fv135+Wineet 15,3 gr ekanligi aniqlandi. Tajribalar natijasida ijobiy ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan namunalari seleksiya usullari orqali barqarorlashtirilib, yangi navlar sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonov I.Yu. va boshqa. “Paxta seleksiyasi va urug‘chiligi asoslari”. – Toshkent, 2020.
2. S.T. Jo‘rayev G‘o‘za seleksiyasi va urug‘chiligi Toshkent-2022y.
3. M. Tojiev. Ingichka tolali g‘o‘za navlarini yetishtirish agrotexnologiyasi bo‘yicha tavsiyalar. Termiz, 2017-y.
4. G. Xolmurodova, S. Boboyev, R. Yuldasheva, G. Jumayeva va O. Abdurahmonov. Murakkab, konvergent va turlararo duragay oila hamda tizmalarning ayrim xo‘jalik belgilari Agro-ilm 2014-y.
5. D.Ramazanov, B.Aytjanov. G‘o‘zaning Meksika va AQSh namunalari hamda mahalliy navlar ishtirokida olingan F2 duragay o‘simliklarning bo‘yi belgisi bo‘yicha o‘zgaruvchanligi. Agro-ilm №2. 2024-yil